

**Halimova Nafisa Murodovna**

*Buxoro shahar kasb hunar maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Aslanova Dilnoza Fatilloyevna**

*Buxoro shahar kasb hunar maktabi Maxsus fanlar(iqtisodiy) o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Respublikamizda iqtisodiyotning tutgan o'rni va uning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiyot, rivojlanish, investitsiya, sifat, taraqqiyot, globallashuv, modernizatsiya.

Mamalakatimizning iqritisodiyotni rivojlantirishda O'zbek modeli ijtimoiyiqtisodiy salohiyatini, xalqimiz davlatchiligi tarixini, milliy diniy qadriyatlar va jahon tajribasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgani qayd etildi. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchi ahamiyati, qonun ustuvorligi kuchli ijtimoiy siyosat, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish mashhur beshta tamoyilga tayangan ushbu model bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish strategiyasi sifatida istiqlol yillarida barcha amaliy ishlarning ishonchli poydevori, taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Globallashuv jarayoni sanoati rivojlangan mamlakatlarning texnologik bazasining sifat jihatidan yangilanishini, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan birga hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilashni ta'minlaydigan yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o'tishni talab qilmoqda. Xorijda bu o'tishni amalga oshiruvchi "yashil o'sish" iqtisodiy siyosati Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti tomonidan barcha a'zolarining uzoq muddatli (2030-yilgacha) rivojlanishi uchun strategik yo'nalish sifatida qabul qilingan. Jamiyat taraqqiyoti, aholi sonining tez sur'atlar bilan o'sishi, ishlab chiqarish va chiqindilarning ko'payishi, ekologik muammolar kengayib, to'planib bormoqda. Eng dolzarb muammolar: jamiyat hayoti uchun qulay shart-sharoitlarni saqlab qolish, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik xavfsizlik. Zamonamizning global muammolari va birinchi navbatda, global ekologik inqiroz insoniyatni faoliyatning barcha sohalarini ko'kalamzorlashtirishga undab, jahon iqtisodiyoti o'sishining muqobil modellarini zudlik bilan izlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu munosabat bilan dunyoning ko'plab davlatlari iqtisodiyotni yashillashtirish, odamlarning turmush tarzini qayta ko'rib chiqish zarurligini anglab yetdi va mavjud rivojlanish modellarini cheklangan resurslarni yanada samaraliroq boshqarish, ya'ni barqaror rivojlanish foydasiga o'zgartirishga kirishdi.

Mamlakat prezidenti O'zbekiston fuqarolari uchun tabiiy haq-huquq va shuningdek oliy ne'mat bo'lgan mustaqillik to'g'risida so'z yuritar ekan, ya'ni uni jamiyat rivojining asosi, bugungi va uzoq istiqboldagi taraqqiyotimiz sharti, barcha islohotlarimizning mezonini va nihoyat, barcha amal qiladigan bosh tamoyil deb ta'riflanadi. Shunday ekan, u jamiyat a'zolari oldiga muttasil yangi-yangi tartibda jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan

mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. Chunki sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda Respublikada barpo qilinajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi. Mulkchilik mulkka egalik qilish va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi ,davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini normal izga solish ana shunday jiddiy yangilanishlarni taqozo etar edi. Iqitidiotni rivojlantirishda ko'plab sohalarga e'tibor qaratildi. Shu jumladan xususiy mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish uchun ham ko'plab islohotlar o'tkazildi. Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora tadbirlari dasturi amalga oshirilishi doirasida 2016-yil mobaynida qonunchilik va me'yoriy huquqiy baza tashkil etish hamda uni takomillashtirish ishlari davom ettirildi. Xusan qurilishning barcha bosqichlarida tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib tamoillari doirasida yagona qoida talablar belgilandi, bino va inshootlar tashqi ko'rinishini o'zgartirish ,obyektlarni qayta iqtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga, turar joylarni noturar joylar toifasiga o'tkazishga ruhsat berish talablari joriy etildi. Eksport-import operatsialarini amalga oshirishda, tadbirkorli operatsialarini amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilish kafolatlari va choralari kuchaytirildi.

qo'llab-quvvatlash va kichik korxonalar tashkil etish maqsadida 2016-yil mobaynida kichik biznes subyektlariga 15.9 trillion so'mlik kreditlar ajratildi va o'sish 2015-yilga nisbatan 1.3 barobarni tashkil etdi. Jumladan qiymati 3.3 trillion so'mlik mikrokreditlar ajratildi, xalqaro moliya institutlarining 915 206.7 million dollar miqdordagi kredit linyalari o'zlashtirildi. Qulay ishbilarmonlik muhitini shakillantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda yanada rag'batlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar 2016-yil mobaynida qariyb 32 ming yangi kichik biznes sub'yekti tashkil etish imkonini berdi. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi qaytadan tiklanuvchi manbalardan energiya ishlan chiqarish yuqori texnika salohiyatiga ega bo'lib uning 97 foizi quyosh energiyasining ulushiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasining prezidentining 2019-yil 22-avgustdag'i "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan mavjud salohiyatlardan samarali foydalanish maqsadida 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiylaj hajmining 25 foizdan ko'prog'iga yetkazish vazifasi belgilandi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qolqollik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda", deya ta'kidlab o'tgan. Shu orinda, milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, innovatsiya faoliyatini rivojlantirmay turib, iqtisodiyot

raqobatbardoshligiga erishib bo'lmaydi. Innovatsiya atamasining mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qachonki har qanday kashfiyotlar, yangi voqealar, xizmatlar va usullar turlari tarqalishiga qabul qilinsa, o'shanda xalq ommasi tomonidan tan olinadi. Bunda yangilikning joriy etilishi yangilikni qo'llash jarayonini bildiradi va yangilikning tarqatilishiga qabul qilinishi vaqtidan boshlab yangi sifat – innovatsiyaga aylanadi.

O'zbekiston iqtisodiy holatining innovatsiyalar bilan o'zaro bog'liqligini quyidagi asosiy jihatlarda ko'rish mumkin, ya'ni innovatsiya faoliyatining milliy iqtisodiyotga ta'sirini tadqiq etish nuqtai nazaridan davlatning moddiy asosi sifatida butunligicha ko'rish; innovatsiyalarning alohida korxona faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishda alohida bozor subyekti sifatida qarash; innovatsiya siyosatini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini o'rganish. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsiyalar, avvalo uning barqaror o'sishi uchun zarurdir. Yangi texnologiyalarga investitsiyalar raqobatbardosh, yuqori talab bilan iste'mol etiladigan tovarlar ishlab chiqarishga yordam beradi. Mamlakat iqtisodiyoti va iqtisodiyot subyektlarining tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositalaridan biri – davlat iqtisodiy siyosatining bo'g'inlaridan hisoblanuvchi innovatsiya siyosatidir. Davlat innovatsiya siyosati yordamida bevosita ishlab chiqarish hajmi sur'atlari oshishiga, fan-texnika taraqqiyoti tezlashishiga, ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishi o'zgarishi, ijtimoiy muammolarni hal qilishga ta'sir o'tkaza oladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi № PQ – 4477 sonli “2019 – 2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030- yilgacha O'zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” gi qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.07.2015 yildagi № 207 sonli Qarori.
4. Yo'doshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 201ly. — 312 b
5. Мухамедъяров А.М. “Инновационный менеджмент” учебное пособие – М.:Инфра – М, 2006. — 127 с.